

**FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA
OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA MUSTAQIL TA'LIMNING KIRIB
KELISHI, RIVOJLANISHI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA
TA'SIRI**

Murtozayeva Muqaddas Sohib qizi

*Ingliz tili Fakulteti, Innovatsion ta'lism texnologiyalari va metodika
kafedrasini mustaqil izlanuvchisi,*

Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand, O'zbekiston

Email: muqaddasmurtazayeva0312@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston oliy ta'limg tizimida mustaqil ta'limgning kirib kelishi va rivojlanish jarayonini tahlil qiladi. Mustaqil ta'limgning zamonaviy oliy ta'limgagi o'rni, uning talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi, shuningdek, ta'limg jarayonidagi samaradorligini oshirishda tutgan o'rni bataysil yoritiladi. Maqolada mustaqil ta'limgning tarixiy rivojlanish jarayonlari, bu ta'limg shaklining oliy ta'limgda joriy etilishiga oid davlat siyosati va reglamentlari o'rganiladi. Shuningdek, mustaqil ta'limgni tashkil qilish va baholash usullari hamda zamonaviy ta'limg texnologiyalari yordamida mustaqil ishlarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada mustaqil ta'limgning oliy ta'limgagi amaliyoti va uning talabalarning o'qish jarayoniga ta'siri haqida chuqur tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'limg, oliy ta'limg, talabalarning mustaqil ishlari, ta'limg samaradorligi, kreativ yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'limg, innovatsion yondashuv, ta'limg tizimi.

O'zbekiston ta'limg tizimida mustaqil ta'limg joriy etilishi zamonaviy ta'limg jarayonining muhim bosqichlaridan biridir. Hozirgi zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarini tayyorlash uchun o'quv jarayonini tubdan isloq qilish zarur. Bu jarayonda, auditoriya mashg'ulotlari va passiv ma'ruzalarning hajmini kamaytirib, talabalarning mustaqil ishlari ulushini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ta'limg jarayonida an'anaviy o'qitish usullaridan voz kechib, talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish asosiy maqsad bo'lishi kerak. Bu jarayon talabalarga o'z o'qish faoliyatlarini mustaqil boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirish va ijodiy yondashuv orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Mustaqil ta'limg talabalarning mas'uliyatini oshiradi, ularni tashabbuskor bo'lishga va mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Ushbu maqolada

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA

O‘zbekistonda mustaqil ta’limning oliy ta’lim tizimiga kirib kelishi, uning rivojlanish yo‘nalishlari hamda ta’lim jarayoniga ko‘rsatgan ta’siri haqida so‘z boradi.

Mustaqil ta’lim O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga XX asr oxirlaridan boshlab joriy etila boshlandi. Sobiq sovet ta’lim tizimi talabalarga ko‘proq nazorat va rahbarlikni ta’minlasa, mustaqil ta’lim talabalarni o‘zini boshqarishga, o‘z bilimlarini chuqurlashtirishga va ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga yo‘naltirdi. O‘zbekistonning 1997-yilda qabul qilingan "Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mustaqil ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Ushbu hujjatlar asosida o‘quv dasturlari va davlat ta’lim standartlari qayta ko‘rib chiqildi. Mustaqil ta’lim orqali talabalarning fikrlash qobiliyatları va o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini rag‘batlantirish bosh maqsadga aylandi. Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ishlarni rag‘batlantiruvchi o‘quv rejalarini ishlab chiqish jarayonida talabalarga beriladigan topshiriqlarni mustaqil bajarish imkoniyati yaratildi. O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31- dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog’liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824- son Qarori hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2021-yil 16-iyuldagagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-son buyrug’i asosida ishlab chiqilgan. Ushbu yo‘riqnomaga asosan, mustaqil ta’lim bu – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo’lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Talabalar mustaqil ta’limining asosiy vazifasi mustaqil ravishda ma’lumotlar topish usuli bilan bilim olishni rivojlantirish, o‘quv jarayoniga ijodiy yondashishga faol qiziqishni shakllantirishdan iborat.

Hozirgi kunda mustaqil ta’lim zamonaviy oliy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. U talabalarga nafaqat ilmiy bilimlarni chuqurlashtirishga, balki tanqidiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar o‘z mustaqil tadqiqotlari, loyihalar va amaliy ishlari orqali turli muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llash va yangi g‘oyalar yaratishga qodir bo‘ladilar.

Mustaqil ta’limning rivojlanishi talabalarning shaxsiy va ilmiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Talabalar o‘z ta’lim jarayonini o‘zlarini

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA

boshqarishga, bilim olish jarayonida mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadilar. Bu o'z-o'zini ta'limalashtirish jarayonini kuchaytiradi va talabalarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, ijodiy topshiriqlarni mustaqil bajarish orqali talabalar muammolarni o'ziga xos tarzda hal qilish usullarini o'rganadilar. Bu jarayon, ayniqsa, amaliy masalalarni hal qilishda talabalarni innovatsion va kreativ yondashuvlarga o'rgatadi. Mustaqil ta'lif jamoaviy ishga ham ta'sir ko'rsatadi, talabalar o'zaro hamkorlikda yangi g'oyalar ishlab chiqish va ijodiy faoliyatni birgalikda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda mustaqil ta'lifni tashkil qilish uchun zamonaviy o'quv-metodik yondashuvlar qo'llaniladi. Masofaviy ta'lif platformalari yordamida talabalarga mustaqil tarzda o'qish va amaliy topshiriqlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirildi. Talabalar turli onlayn-resurslar va interaktiv darsliklar yordamida mustaqil ravishda bilim olishlari mumkin. Ma'ruza va seminarlar bilan bir qatorda mustaqil referatlar, ilmiy maqolalar va loyihibarlar tayyorlash ham ta'lif jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Baholash tizimida ham o'zgarishlar mavjud. Talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, ijodiy yondashuv va amaliy yechimlar ham baholash mezonlari sifatida qabul qilinmoqda. Talabalarning loyihibarlar, mustaqil izlanishlar va ijodiy ishlari ta'lif natijalarini baholashda muhim o'rinni tutadi. Bu esa ta'lif jarayonini yanada samarali va motivatsion qiladi.

Texnologik taraqqiyot mustaqil ta'limga yangi imkoniyatlar yaratdi. Hozirda talabalar raqamli texnologiyalar va onlayn-platformalar orqali bilim olishlari mumkin. Elektron darsliklar, onlayn-kurslar va vebinarlar yordamida talabalarning mustaqil ta'lif olish jarayonini yanada qulaylashtiradi. Bu raqamli vositalar yordamida talabalar masofadan turib o'z bilimlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ta'lif jarayonining samaradorligini oshiradi.

Hozirgi davr mutaxassisidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil qaror qabul qilish, vazifalarni bajarish uchun katta hajmdagi ma'lumotlar orasidan keraklisini tanlash va ularni qayta ishlash qobiliyatları talab etiladi. Mustaqil ta'lif jarayoni orqali talabalar bu ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'zlashtiradilar. Shu tariqa, ular turli mavzular bo'yicha mustaqil tayyorgarlik ko'rishga, atrofdagi hodisalarga tahliliy yondoshishga, tezkor va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, mustaqil ta'lif talabalarning mas'uliyat hissini kuchaytiradi, ijodiy faollik va tashabbuskorlikni rivojlanitiradi. Mustaqil ta'lif jarayoni o'qituvchi ko'rsatmasi va uslubiy yo'naltirishlari asosida, ammo uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi. Talabalar darsdan

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

tashqari vaqtida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanib, kerakli materiallar va adabiyotlarni izlab topadilar. Bu jarayon talabalarni mas’uliyatli bo‘lishga va har bir vazifaga jiddiy yondashishga o‘rgatadi. Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi talabalarda fundamental bilimlar, kasbiy ko‘nikmalar va ijodiy yondashuvlarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida tajriba to‘plash va kasbiy masalalarni hal qilishda innovatsion yondashuvni rivojlantirishdir.

Mustaqil ta’lim O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida o‘z o‘rnini mustahkamlagan. Talabalar o‘z ta’lim jarayonini boshqarishga, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘rganganlar. Mustaqil ta’lim talabalarning bilim olish jarayoniga mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlaydi hamda ularning innovatsion va ijodiy qobiliyatlarini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida mustaqil ta’limni tashkil etish yanada samarali va talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Mustaqil ta’lim talabaning oldindan shakllangan bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalari asosida amalga oshiriladi. O‘quv fanlarini puxta o‘zlashtirish, innovatsion yondashuvlar orqali axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, ularni tahlil qilish, ilmiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish talabaning asosiy maqsadlaridan biridir. O‘quv jarayonida faol ishtirok etish, bahs-munozaralarda qatnashish, o‘z fikrini dalillar bilan asoslab bayon qilish va uni himoya qilish qobiliyati bo‘lajak mutaxassis uchun muhim ahamiyatga ega. Talabalarning mustaqil ravishda faoliyat yuritishi ularning kelajakdagi ilmiy ishlarining poydevorini shakllantiradi. Kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash jarayonida talaba qo‘yilgan muammolarni chuqur tahlil qilib, mustaqil fikr va xulosalar chiqarishi zarur. Pedagog va talaba uchun mustaqil ta’limning asl maqsadi talabaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga zamin yaratishdir. Talaba o‘zi bajarayotgan ish uchun mas’uliyatni his qilishi va ta’lim olishi natijasida o‘zining kelajagini shakllantirishga hissa qo‘sheyotganini anglash kerak. Mustaqil ta’limning mohiyati talabani o‘z holiga tashlab qo‘yish emas, balki pedagog tomonidan nazorat qilinadigan va yo‘naltiriladigan jarayondir.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro’yxati:

1. D.X.Xolmurodova “Issues in Teaching Speaking to EFL students” . International Conference on Applied Sciences, London, united Kingdom on 24-25th September – 2021.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

- 2.D.X.Xolmurodova “Importance and benefits of teaching communications skills to medical students”. “Umumiy o’rta maxsus ta’limda xorijiy tillarni o’qitish: Uzviylik va izchillik” Toshkent – 2021.
3. Sh.I.Yo’ldashev. Talabalarning mustaqil ta’limining zamonaviy o’quv jarayonida ahamiyati va o’rni bo’yicha uslubiy qo’llanma. Toshkent-2022.
4. Axmedova Maloxat Ergashevna. Modul-kredit tizimida talabalarning sifatli ta’lim olishida mustaqil o’qish metodikasi. Международный научный журнал «Научный импульсъ». №9(100), часть 3. 1357-с.
5. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O‘quv qo’llanma) – T.: Tafakkur bo’stoni, 2011.
6. Axmedova M.E. G.Niyozov. Pedagogika nazariyasi va tarixidan seminar mashg’ulotlar (O‘quv qo’llanma) – T.: Noshir, 2011.
7. Rayhon Qadirova Jumaboyevna. Mustaqil ta’limni tashkil qilish metodlari. Oriental Renaissance:Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2. 509-bet